

**ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASINING YORITILISHI.**

**Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi**

International school of Finance Technology and Science instituti

katta o'qituvchisi

**Umarqulova M.A**

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk ma'rifatparvar davlat arbobi Abdulla Avloniyning yuksak tarbiyaviy asarlarining boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni. U yaratgan darsliklarning jamoatchilikka taqdim etilishi va didaktikasini o'rganish borasidagi tahlillar, Avloniyayotining yorqin qirralarini, uning pedagogik faoliyatini, adabiyotga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, axloq, tarbiya, darslik, muallim, makkab, vatan, jaholat, g'aflat istiqbol axloq

**Аннотация:** Эта статья о великом просвещенном государственном деятеле Абдулле Авлани. в формировании нравственных качеств учащихся младших классов высших учебных заведений место По поводу презентации созданных им учебников общественности и изучения дидактики. анализ, яркие стороны жизни и творчества Авлони, его педагогической деятельности, литературе. вклад обсуждался.

**Ключевые слова:** современность, просвещение, мораль, образование, учебник, учитель, школа, родина, невежество, небрежный взгляд на мораль

**Abstract:** This article is about the great enlightened statesman Abdulla Awlani in the formation of moral qualities of elementary school students of high educational works place Regarding presentation of textbooks created by him to the public and study of didactics analysis, bright aspects of Avloni's life and work, his pedagogical activity, to literature contribution was discussed.

**Keywords:** modernity, enlightenment, morality, education, textbook, teacher, school, homeland, ignorance, careless perspective morality

Abdulla Avloniy — o'zbek adabiyoti va pedagogikasining buyuk namoyandasasi. U o'z asarlarida ta'lif-tarbiya masalalarini keng yoritib, ilm-ma'rifatni millatning ravnaqi va jamiyatning kelajagi uchun zarur omil sifatida ko'rsatgan. Uning pedagogik qarashlari milliy, axloqiy va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan. Ushbu maqolada Avloniyning ta'lif-tarbiyaga oid asarlari tahlil qilinib, ularning dolzarbliji ko'rib chiqiladi. Abdulla Avloniyning makkab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ hamda „Birinchi muallim“, „Turkiy guliston yoxud axloq“, „Ikkinchi muallim“, „Makkab gulistoni“ kabi asarlari muhim hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lif-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqorida fikrlarimiz dalilidir. boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024



kitobxonlik yoki she’riyat kechalarini targ‘ib etishda ham Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’lim va tarbiya masalalarini asosiy mavzu sifatida ko‘taradi. U insonni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar, odob, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik kabi xususiyatlarni muhim deb biladi.

Ma'lumki, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish ona tili o‘qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi, ta’limiy vosita vazifasini bajaruvchi ma'lum bir asar voqealari ifodali o‘qish orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirilgan. Abdulla Avloniy o‘quvchining savodini chiqarishga qanchalik e'tibor qaratgan bo‘lsa, asarlarni tushunib, ifoda bilan o‘qishiga, badiiy asarni his qilishiga shunchalik ko‘p diqqatini qaratgan. Dars jarayonida o‘quvchilarning xor bo‘lib o‘qishlarini ta'minlagan, mashqlar o‘tkazgan. Avloniyning o‘zi dars jarayonida dirijyor sifatida namoyon bo‘lgan. Chunki Avloniy dirijyorlik san'atidan ham xabardor edi. Ifodali o‘qishning turli shakllari mavjud bo‘lib, ulardan biri deklamatsiya qilib o‘qishdir. Abdulla Avloniy chin ma’noda muallim milliy maktab tizimini va yaratgan asarlarining millatimizga ravnaqi uchun o‘z hizmati ko‘rsatyapti. Abdulla Avloni shoir siftida nafaqat muhabbat balki urf-odat va maktab-maorif mavzulariga bag‘ishlangan she’rlar yaratadi. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, shoir yaratgan har bir ijod na’munasining tub mohiyati inson va tarbiya, axloqiy go‘zallik va ma’naviy boylikka borib taqaladi.

Maktab misli tilla qilur,

Maktab sizni mulla qilur

Maktab she`ridan olingan ushbu misralarda ham shoir maktab inson uchun zulm, nohaqlik vaadolatsizliklardan xalos etuvchi najot yo‘li ekanligini tasdiqlaydi. Bu jihatlari bilan alohida ajralib turadigan asarlaridan biri bu „Adabiyot” kitobidir. shoir shunday yozadi: Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa Xanjar, olmosday bo‘lur o‘tkir Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Avloniy bola tarbiyasini uning odob axloqi haqida fikrni ilgari surdi.

„Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Albatta xalqimiz orasida „Bir bolaga yetti mahalla ota-onas” degan naql yuradi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirish-da axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy mакtab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlar va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta’limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo‘lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta’limiy, tarbiyaviy g‘oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024



hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma’nomohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g‘oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz.-

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ulug‘ adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, bo‘lmoqda. Abdulla Avloniy asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari chuqur yoritilib, ularning ahamiyati hozirgi zamonda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari milliy tarbiya tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida Avloniyning asarlari bebafo manba sifatida xizmat qilmoqda. Shuning uchun uning merosini o‘rganish va keng ommaga yetkazish juda muhim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika.T-.:A.Navoiy nomidagi O’zb-n Milliy kutubxonasi nashriyoti,2009
2. Quronov M.Ijtimoiy pedagogika.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2003
3. SidiqovaSh. Tinglovchilarni ijtimoiy -pedagogik faoliyatga tayyorlash-T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2009
4. OLIMJONOVA, Z. (2024). OILADAGI SEVGI-ER-XOTIN MUNOSABATLARINING ASOSI SIFATIDA. UzMU xabarlari, 1(1.2. 1), 165-168.
5. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. Journal of new century innovations, 27(2), 46-49.
6. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YOLLARI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 235-238.
7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
8. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 70-74.
9. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕХНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 663-670.
10. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRINI EMPIRIK O

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.  
International online conference.**

---

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024

‘RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(5), 73-82.

11. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(9), 22-27.

